Annotatsiya. Turizm jahon iqtisodiyotining strategik muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun eksportning asosiy manbai bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 2015–2024-yillar oralig'ida soha misli ko'rilmagan sur'atlar bilan o'sdi: xorijiy turistlar oqimi 8,2 million nafarga, turizm xizmatlari eksporti esa 3,52 milliard dollarga yetdi. Miqdoriy o'sishga qaramay, xizmat ko'rsatish sifati va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovut saqlanib qolmoqda, bu esa turistlarning o'rtacha xarajatlari pastligi va takroriy tashriflar cheklanganligida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston, xususan, Samarqand viloyati misolida turizm xizmatlari sifati va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tahlil qilishdan iborat. Tahlillar TripAdvisor reytingi va turizm daromadi o'rtasida yuqori korrelyatsiya ($r = 0,87$) mavjudligini ko'rsatdi; xizmat sifati 1 ballga oshganda daromad 28–35 % ga o'sishi aniqlandi. Samarqandda o'rtacha tunash muddati 4,8 kunni tashkil etib, kadrlar malakasi va raqamli xizmatlar yetishmasligi sababli xalqaro ko'rsatkichlardan orqada qolmoqda. Mazkur tadqiqotda ilk bor O'zbekiston sharoitida "qiymat uchun pul" konsepsiyasi va xizmat sifati bog'liqligi Samarqand viloyati misolida kompleks tahlil qilindi. Sifatli o'sishga o'tish uchun milliy sifat reyting tizimini joriy etish, Samarqandda Turizm sifati akademiyasini tashkil etish va sifat ko'rsatkichlarini "Turizm-2030" strategiyasining asosiy KPI si sifatida belgilash taklif etiladi.

Kalit so'zlar: turizm, xizmat sifati, iqtisodiy ko'rsatkichlar, turizm daromadi, mehmonxona infratuzilmasi.

Abstract. Tourism has become a dynamic, strategically vital sector of the global economy, serving as a primary export source for many developing nations. In Uzbekistan, the industry experienced unprecedented growth between 2015 and 2024, with foreign visitor arrivals reaching 8.2 million and service exports rising from \$688 million to \$3.52 billion. Despite this quantitative expansion, a significant gap remains between service quality and international standards, leading to low average spending and limited repeat visits, particularly in cultural hubs like Samarkand. This study empirically analyzes the correlation between tourism service quality and economic indicators in Uzbekistan, focusing on the Samarkand region. Findings reveal a high positive correlation ($r = 0.87$) between TripAdvisor service ratings and revenue; specifically, a one-point increase in service quality correlates with a 28–35% rise in tourism income. While tourist numbers surged, average stays in Samarkand remain at 4.8 days, trailing the international 6–7 day benchmark due to lagging staff qualifications and digital infrastructure. This research provides the first comprehensive complex analysis of the link between "value for money" and tourism service quality specifically within the Uzbek context. To transition from quantitative to qualitative growth, the study recommends implementing a national quality rating system, establishing a Tourism Quality Academy in Samarkand, and adopting "Service Quality" as a core KPI in the Tourism-2030 strategy.

Key words: tourism, service quality, economic indicators, tourism revenue, hotel infrastructure.

Аннотация. Туризм стал стратегически важным сектором мировой экономики, выступая основным источником экспорта для многих развивающихся стран. В Узбекистане в период 2015–2024 годов отрасль продемонстрировала беспрецедентный рост: поток иностранных туристов достиг 8,2 млн человек, а экспорт туристических услуг увеличился с 688 млн до 3,52 млрд долларов. Несмотря на количественное расширение, сохраняется значительный разрыв между качеством услуг и международными стандартами, что выражается в низких средних расходах туристов и ограниченном числе повторных визитов. Целью исследования является эмпирический анализ корреляции между качеством туристических услуг и экономическими показателями Узбекистана на примере Самаркандской области. Анализ выявил высокую положительную корреляцию ($r = 0,87$) между рейтингами качества услуг на TripAdvisor и доходами от туризма; установлено, что повышение качества услуг на 1 балл коррелирует с ростом доходов на 28–35%. Средняя продолжительность пребывания в Самарканде составляет 4,8 дня, что ниже международного показателя (6–7 дней) из-за недостатка квалификации кадров и цифровой инфраструктуры. Данное исследование представляет собой первый комплексный анализ взаимосвязи концепции «соотношение цены и качества» и качества туристических услуг в контексте Узбекистана. Для перехода к качественному росту рекомендуется внедрение национальной системы рейтингов качества, создание Академии качества туризма в Самарканде и включение показателей качества услуг в качестве ключевых KPI в стратегию «Туризм-2030».

Ключевые слова: туризм, качество услуг, экономические показатели, доходы от туризма, гостиничная инфраструктура.



KIRISH

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng dinamik va strategik muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda xalqaro turizm daromadi global miqyosda 1,8 trillion AQSh dollaridan oshdi. Bu ko'rsatkich ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eksportning asosiy manbaiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi uchun ham turizm sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. So'nggi o'n yilda mamlakatimiz turizm sohasi misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlandi. 2015-yilda chegara o'tishlari 6,98 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda turistik maqsadlarda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni 8,2 million nafarga yetdi. Shu davr ichida turizm xizmatlari eksporti 2015-yildagi 688 million AQSh dollaridan 2024-yilda 3,52 milliard dollarga ko'tarildi. Bu raqamlar O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Biroq bu miqdoriy o'sish sifat jihatidan bir xil emas.

Mening ilmiy kuzatishlarim va Samarqand viloyati misolida o'tkazgan tahlillarim shuni ko'rsatadiki, turistlar sonining keskin oshishi bilan birga xizmatlar sifati va turmahsulotning "puliga arziydiganligi" (value for money) masalasi hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Mehmonlar Registon va Shohizindadan hayratda qolishadi, lekin xizmat ko'rsatish darajasi, xodimlar malakasi, raqamli xizmatlar va umumiy qulaylik darajasi ko'pincha xalqaro standartlardan orqada qolmoqda. Natijada o'rtacha sarf-xarajat yuqori emas va takroriy tashriflar soni cheklangan. Masalan, 2015-yilda sof turistik maqsadda kelganlar soni atigi 166,981 nafarni tashkil etgan bo'lsa, ularning aksariyati qarindosh-urug'larni ziyorat qilish maqsadida bo'lgan. Bu holat o'rtacha sarf-xarajatni 280–350 AQSh dollarigacha pasaytirgan. 2024-yilga kelib esa turistlar soni keskin oshganiga qaramay, Samarqand viloyatida o'rtacha tunash muddati hali ham 4–5 kun atrofida qolmoqda. Bu ko'rsatkich xizmat sifati va turmahsulot qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganish zarurligini yaqqol ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekiston turizmi miqdoriy o'sish bosqichidan sifatli o'sish bosqichiga o'tish davrida turibdi. Xizmat sifatini oshirish va turmahsulot qiymatini optimallashtirish nafaqat daromadni ko'paytiradi, balki mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi. Ayniqsa, Samarqand kabi madaniy meros markazlarida bu masalani hal etish butun mamlakat turizmining rivojlanishiga katta turtki beradi. Turizm sohasida xizmatlar sifati va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan mavzudur. Ushbu bo'limda nazariy asoslar, xorijiy tadqiqotlar, O'zbekiston va MDH mamlakatlari tajribasi tahlil qilinadi hamda mavzuning o'rganilmagan jihatlari aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat sifati nazariyasining asoschisi Parasuraman, Zeithaml va Berry (1988) tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli bo'lib, u mijozning kutilgan va haqiqiy olingan xizmat o'rtasidagi farqni beshta o'lchov (tangibles, reliability, responsiveness, assurance, empathy) orqali baholaydi [1]. Turizmda bu model keng qo'llanilgan: Cronin va Taylor uni soddalashtirib, SERVPERF modelini taklif qilgan bo'lib, u faqat haqiqiy xizmat sifatini o'lchaydi va iqtisodiy samaradorlik bilan yuqori korrelyatsiyani ko'rsatadi [2]. Xizmat sifati oshishi bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni WTTC va UN Tourism hisobotlari tasdiqlaydi. WTTC ma'lumotlariga ko'ra, sifatli xizmat mijoz qoniqishini 20–40 % ga oshirib, takroriy tashriflar va tavsiyalar orqali daromadni oshiradi. UN Tourism World Tourism Barometer hisobotida xizmat sifati 1 ballga oshganda turizm daromadi o'rtacha 25–35 % ga o'sishi mumkinligi qayd etilgan [3]. Value for money (qiymat uchun pul) konsepsiyasi ham muhim: Oh va Gallarza va Gil tadqiqotlarida mijozning "puliga arziydiganligi" hissi xizmat sifati va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi asosiy ko'prik ekanligi isbotlangan. Turizmda bu ko'rsatkich o'rtacha sarf-xarajat va qoniqish darajasini belgilaydi [3][4]. Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida Jahon banki hisoboti sifatli xizmat turizm eksportini 3 baravarga yetkazish imkonini berishini ko'rsatadi [5].

O'zbekiston olimlari so'nggi yillarda bu mavzuga faol qiziqmoqda. G. Tursunova "Turistik xizmatlarni ko'rsatishda sifatning iqtisodiy muammolari" maqolasida xizmat sifati pastligi sababli o'rtacha sarf-xarajatning pastligini va daromadning cheklanganligini ko'rsatgan. Tadqiqot 2015–2024-yillar Stat.uz ma'lumotlariga asoslanib, mehmonxona xodimlarining malakasi va raqamli xizmatlar yetishmasligini asosiy muammo deb hisoblaydi [6]. Karimov va boshq. "Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road" maqolasida Silk Road shaharlari (Samarqand, Buxoro, Xiva) misolida xizmat sifati va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan [7]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sifat yuqori bo'lgan hududlarda o'rtacha sarf-xarajat 620–700 AQSh dollariga yetgan, past bo'lgan hududlarda esa 350–450 AQSh dollari atrofida qolgan [8]. MDH mamlakatlarida ham shunga o'xshash tadqiqotlar mavjud. Rossiya olimlari turizm xizmat sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan bo'lib, sifatli xizmat takroriy tashriflar sonini 40 % ga oshirishini isbotlagan [9].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

2015–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida O'zbekiston turizm sohasida xizmatlar sifati va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik empirik jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor turist oqimi, daromad, o'rtacha sarf-xarajat, joylashtirish vositalari soni va xizmat sifati reytinglariga qaratilgan. Samarqand viloyati misolida hududiy xususiyatlar ochib beriladi. 2015–2024-yillarda O'zbekiston turizmi miqdoriy jihatdan jadal o'sdi, ammo sifat ko'rsatkichlari sekinroq rivojlandi. Quyidagi jadval asosiy dinamikani ko'rsatadi (1-jadval):

1-jadval. Turizm sohasining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2015–2024)¹

Yil	Turistlar soni (ming nafar, turistik maqsad)	Turizm daromadi (mlrd AQSh dollari)	O'rtacha sarf-xarajat (AQSh dollari/kishi)	Mehmonxona va ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni	Xizmat sifati reytingi (TripAdvisor, o'rtacha ball)
2015	167 (sof turist) / 6 983 (umumiy chegara)	0,69	280–350	~800–900	3,8
2019	6 748	1,68	420	1 051	4,2
2023	6 626	2,14	510	5 200+	4,5
2024	8 200+	3,52	620–700	6 800+	4,7

2015-yilda sof turistik maqsadda kelganlar soni atigi 167 ming nafarni tashkil etgan, qolganlari asosan qarindosh ziyorati edi. Bu holat o'rtacha sarf-xarajetni past darajada ushlab turgan. 2019-yilga kelib turist soni 40 baravar oshgan, daromad esa 2,4 baravar ko'paygan. Eng muhim o'sish 2023–2024-yillarda kuzatildi: turistlar soni 8,2 millionga yetdi, daromad 3,52 milliard dollarga chiqdi (Statistika agentligi, 2025-yil fevral relizi). 2024-yilda o'rtacha sarf-xarajat 620–700 AQSh dollari ga yetgan bo'lsa-da, MDH davlatlaridan kelgan turistlar uchun bu ko'rsatkich hali 400–500AQSh dollari atrofida qolmoqda. Bu holat xizmat sifati va qiymat o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. Samarqand viloyati O'zbekiston turizmining madaniy markazi sifatida alohida ahamiyatga ega. 2024-yilda viloyatda joylashtirilgan xorijiy mehmonlar soni 230–250 ming nafardan oshgan [10]. Bu mamlakatdagi umumiy turist oqimining taxminan 11–12 % ini tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval. Samarqand viloyatida xizmat sifati va iqtisodiy ko'rsatkichlar (2015–2024)²

Yil	Joylashtirilgan xorijiy mehmonlar (ming nafar)	O'rtacha tunash muddati (kun)	Viloyat daromadi ulushi (%)	Xizmat sifati reytingi (TripAdvisor)
2015	~45	3,2	8,5	3,9
2019	120	4,1	11,2	4,3
2023	180	4,5	12,8	4,6
2024	230–250	4,8	13,5	4,8

Samarqandda turistlar soni o'sishi bilan birga o'rtacha tunash muddati 3,2 kundan 4,8 kungacha oshgan. Bu ijobiy tendensiya, lekin hali ham xalqaro standartlardan (6–7 kun) orqada.

Statistik hisob-kitoblarga ko'ra (SPSS dasturi yordamida):

— Xizmat sifati reytingi (TripAdvisor ballari) va turizm daromadi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0,87$ (yuqori ijobiy bog'liqlik).

— Sifat 1 ball oshganda daromad o'rtacha 28–35 % ga o'sadi (regressiya modeli, $R^2 = 0,76$).

— Samarqand viloyatida bu bog'liqlik yanada kuchliroq ($r = 0,91$).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmat sifati oshirish iqtisodiy samaradorlikni yanada yuksaltirishning eng istiqbolli yo'li hisoblanadi. 2015–2024-yillar davomida miqdoriy o'sish (turist soni va daromad) sezilarli bo'lib, sifat ko'rsatkichlari ham bosqichma-bosqich yaxshilanib bormoqda. Bu holat turmahsulot qiymatini yanada oshirish va yuqori daromadli turistlarni (Yevropa, Osiyo) kengroq jalb qilish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Samarqand viloyati bu imkoniyatlarni yaqqol namoyon etadi: madaniy meros boy, xizmat sifati va qiymat esa izchil rivojlanish bosqichida. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xizmat sifati oshirish va turmahsulot qiymatini optimallashtirishsiz turizmning barqaror rivojlanishi mumkin emas. Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston

1 Manbalar: Statistika agentligi byulletenlari (2015–2024), Davlat bojxona qo'mitasi (2015), UN Tourism (2024), TripAdvisor reytinglari (2024 yil dekabr holati).

2 Manbalar: Statistika agentligi hududiy byulletenlari (2015–2024), Samarqand viloyati statistikasi (2025).



turizm sohasida xizmatlar sifati va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan tasdiqladi [11]. 2015–2024-yillar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, turist oqimi va daromadning keskin o'sishi (167 mingdan 8,2 milliongacha turist, 0,69 mlrd AQSh dollari dan 3,52 mlrd AQSh dollari gacha daromad) asosan miqdoriy omillar — viza soddalashtirish, yangi reyslar, marketing kampaniyalari va infratuzilma investitsiyalari hisobiga bo'lgan. Biroq xizmat sifati ko'rsatkichlari (TripAdvisor reytingi 3,8 dan 4,7 ballgacha o'sishi) va o'rtacha sarf-xarajat (280–350 AQSh dollaridan 620–700 AQSh dollarigacha) o'sishi barqaror va izchil tarzda kechgan. Bu holat turmahsulot qiymatini (value for money) yanada oshirish va yuqori daromadli turistlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda. Natijalarni xalqaro adabiyot bilan solishtirganda, O'zbekiston tajribasi Parasuraman va boshqalar SERVQUAL modeliga to'liq mos keladi: xizmat sifati va mijoz qoniqishi o'rtasidagi farq (gap) qanchalik katta bo'lsa, daromad o'sishi shunchalik cheklangan bo'ladi. WTTC va UN Tourism hisobotlarida xizmat sifati 1 ballga oshganda daromad 25–35 % ga o'sishi mumkinligi qayd etilgan bo'lsa, bizning tahlilimizda bu ko'rsatkich 28–35 % oralig'ida chiqdi (korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0,87$). Bu natija O'zbekiston sharoitida ham xalqaro tendensiyalar tasdiqlanishini ko'rsatadi [12].

Samarqand viloyati misolida hududiy farqlar yaqqol ko'rindi: 2024-yilda viloyatda joylashtirilgan xorijiy mehmonlar soni 230–250 ming nafarga yetgan bo'lsa-da, o'rtacha tunash muddati 4,8 kun atrofida qolmoqda. Bu ko'rsatkich xalqaro standartlardan (6–7 kun) orqada qolishining asosiy sababi xizmat sifatining cheklanganligi: mehmonlar Registon va Shahizinda kabi obyektlarni yuqori baholasa-da, mehmonxona xodimlari malakasi, raqamli xizmatlar (onlayn bron, mobil ilovalar) va umumiy mehmondo'stlik darajasini past deb baholamoqda [13]. Bu holat Karimov va boshq. tadqiqotiga mos keladi: Silk Road shaharlari madaniy meros boyligiga qaramay, xizmat sifati pastligi sababli o'rtacha sarf-xarajat MDH davlatlaridan kelgan turistlarda 350–450 AQSh dollari atrofida qolmoqda.

O'zbekiston kontekstida xizmat sifati rivojlanishining asosiy omillari quyidagilar deb aniqlangan:

- Xodimlar malakasini oshirish imkoniyatlari mavjudligi (ingliz va xitoy tillarini bilish darajasi 35–40 % atrofida bo'lib, uni yanada kengaytirish istiqbollari mavjud, Turizm vazirligi hisoboti, 2024-yil).
- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish bosqichida ekanligi (to'g'ridan-to'g'ri bron qilish tizimi joriy etilib, kengayib bormoqda).
- Sertifikatsiya va standartlashtirish tizimining izchil shakllanib borayotgani (5 yulduzli mehmonxonalar ulushi 5–7 % darajasida bo'lib, kelgusida oshirish imkoniyatlari mavjud).
- Paket narxlarining shakllanishi va xizmatlar qiymatini yanada muvozanatlashtirish imkoniyati ("qiymat uchun pul" hisini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda).

Bu jihatlar Rabbonovna tadqiqotida ham rivojlanish salohiyati sifatida qayd etilgan: xizmat sifati oshib borishi bilan turistlarning o'rtacha sarf-xarajati va takroriy tashriflar sonini ko'paytirish imkoniyati mavjud [14]. Shu bilan birga, Astanakulov maqolasida turizmning GDP ulushi 3,3 % dan oshgani qayd etilib, bu o'sishning yanada sifat jihatdan boyitilishi uchun imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlangan. Tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlari ham muhokama qilinishi lozim. Birinchidan, milliy xizmat sifati reyting tizimini yaratish zarurati subyektiv baholar (TripAdvisor, Booking.com) bilan bir qatorda kompleks baholash tizimini shakllantirish imkonini beradi. Ikkinchidan, pandemiya davridagi ma'lumotlar tahlili turizm sohasining moslashuvchanligini chuqurroq o'rganish imkonini yaratdi. Uchinchidan, tadqiqot Samarqand viloyati misolida olib borilgan bo'lib, kelgusida mamlakat miqyosida kengaytirilgan tahlillar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, olingan natijalar mavzuning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Xizmat sifatini oshirish nafaqat daromadni oshiradi, balki turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, sifat reytingini 0,5 ballga oshirish viloyat daromadini 15–20 % ga oshirishi mumkin [15]. Bu esa "Turizm-2030" strategiyasida sifat ko'rsatkichlarini KPI sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, miqdoriy o'sishdan sifatli o'sishga o'tish O'zbekiston turizmining kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xizmat sifatini oshirish va turmahsulot qiymatini optimallashtirish orqali nafaqat turistlar sonini ko'paytirish, balki ularning har bir tashrifidan yuqori iqtisodiy samara olish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekiston turizm sohasida xizmatlar sifati va unga bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni 2015–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida kompleks tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm oqimi va daromadning keskin o'sishi (turistlar soni 167 mingdan 8,2 milliongacha, daromad 0,69 mlrd AQSh dollaridan 3,52 mlrd AQSh dollarigacha) asosan miqdoriy omillar — viza rejimi soddalashtirilishi, yangi aviareyslar, xalqaro marketing va infratuzilma investitsiyalari hisobiga amalga oshirilgan. Biroq xizmat sifati ko'rsatkichlari (TripAdvisor reytingi 3,8 dan 4,7 ballgacha o'sishi) va o'rtacha sarf-xarajat (280–350 AQSh dollaridan 620–700 AQSh dollarigacha) o'sishi sekinroq kechgan. Bu holat turmahsulot qiymatini (value for money) pasaytirib, yuqori daromadli turistlar (Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy) oqimini cheklab kelmoqda. Samarqand viloyati misolida ushbu rivojlanish tendensiyasi yaqqol namoyon bo'ladi: 2024-yilda viloyatda joylashtirilgan xorijiy mehmonlar soni 230–250 ming nafarga yetgan bo'lib, o'rtacha tunash



muddati 4,8 kun atrofida shakllangan. Bu ko'rsatkichni xalqaro standartlar (6–7 kun) darajasiga yetkazish uchun xizmat sifatini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud: mehmonlar madaniy merosni yuqori baholamoqda, mehmonxona xodimlari malakasi, raqamli xizmatlar va umumiy mehmondo'stlik darajasi esa izchil rivojlanish bosqichida.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shuki, miqdoriy o'sishdan sifatli o'sishga o'tish O'zbekiston turizmining barqaror rivojlanishining hal qiluvchi shartidir. Xizmat sifatini oshirish nafaqat daromadni tezroq oshiradi (korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0,87$; sifat +1 ball $\rightarrow$ daromad +28–35 %), balki turistlarning takroriy tashriflari va "og'izdan og'izga" tavsiyalarini ko'paytirib, mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Natijalar xalqaro adabiyot bilan to'liq mos keladi: Parasuraman va boshqalar 1988 SERVQUAL modeli va WTTC 2025 hisobotlari xizmat sifati va daromad o'rtasidagi yuqori bog'liqlikni tasdiqlaydi. O'zbekiston kontekstida bu bog'liqlik Samarqand kabi madaniy markazlarda yanada kuchliroq namoyon bo'lmoqda. Biroq milliy tadqiqotlarda xizmat sifatini oshirishning konkret mexanizmlari va turmahsulot qiymatini optimallashtirish usullari yetarli darajada taklif qilinmagan. Ushbu tadqiqot shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Ilmiy ahamiyati shundaki, birinchi marta O'zbekiston turizmida xizmat sifati va turmahsulot qiymati o'rtasidagi bog'liqlik Samarqand viloyati misolida kompleks tahlil qilindi va empirik jihatdan tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari turizm statistikasi va xizmat sifati nazariyasini milliy sharoitga moslashtirishga yangi yondashuv taklif etadi.

Amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyat hokimliklari va turizm korxonalari uchun xizmat sifatini oshirish bo'yicha aniq yo'l-yo'riqlar beriladi.
- Samarqand viloyatida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalar (sifat markazi, dinamik narxlash) taklif etiladi.
- Milliy turizm strategiyasi ("Turizm-2030") uchun sifat ko'rsatkichlarini KPI sifatida joriy etish bo'yicha asos beriladi.

Takliflar quyidagilardan iborat:

1. Xizmat sifatini monitoring qilish tizimini joriy etish. Yillik milliy sifat reytingini yaratish (SERVQUAL modeli + mijoz so'rovnomalari + TripAdvisor/Booking.com baholari integratsiyasi). Har chorakda hududiy reyting e'lon qilish (Statistika agentligi va Turizm vazirligi hamkorligida).
2. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish. Turizm kollejlari va universitetlarida xalqaro standartlar (UN Tourism TedQual, ISO 9001) bo'yicha dasturlar joriy etish. Samarqandda "Turizm sifati va mehmondo'stlik akademiyasi" tashkil etish, gidlar, mehmonxona xodimlari va restoran xodimlarini ingliz, xitoy va rus tillarida o'qitish (2026–2028-yillarga mo'ljallangan).
3. Turmahsulot qiymatini optimallashtirish. Dinamik narxlash tizimini joriy etish (mavsumiy va kunlik narx o'zgarishi). "All-inclusive" va tematik paketlarni rivojlantirish (ziyorat + madaniy + ekologik paketlar). Milliy turizm portali orqali to'g'ridan-to'g'ri sotuvni kuchaytirish (vositachilar ulushini 20–30 % ga kamaytirib, qiymatni oshiradi).
4. Samarqand viloyatida pilot loyiha. "Sifat markazi" tashkil etish, gidlar va mehmonxona xodimlarini bir joyda o'qitish, xalqaro brend mehmonxonalar jalb qilish va mahalliy hunarmandchilik bilan integratsiyalashgan paketlarni taklif etish. Bu loyiha viloyat daromadini 15–20 % ga oshirishi mumkin (hisob-kitoblarimiz asosida).
5. Davlat siyosati darajasida. "Turizm-2030" strategiyasida xizmat sifati va turmahsulot qiymatini asosiy KPI sifatida belgilash. Mehmonxonalarni majburiy sertifikatsiyadan o'tkazish (5 yulduzli ulushini 2028-yilga 15 % ga yetkazish). Yillik "Turizm sifati milliy mukofoti" tashkil etish.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, O'zbekiston turizmi miqdoriy o'sishdan sifatli va barqaror o'sish bosqichiga o'tadi. Bu nafaqat daromadni oshiradi, balki mamlakatning xalqaro imidjini mustahkamlaydi va kelajak avlodlar uchun turizm industriyasini yanada raqobatbardosh qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L. SERVQUAL: A multiple-item scale for measuring consumer perceptions of service quality // Journal of Retailing. — 1988. — Vol. 64. — № 1. — P. 12–40.
2. Cronin J.J., Taylor S.A. Measuring service quality: A reexamination and extension // Journal of Marketing. — 1992. — Vol. 56. — № 3. — P. 55–68.
3. Oh H. The effect of brand class, brand awareness, and price on customer value and behavioral intentions // Journal of Hospitality & Tourism Research. — 2000. — Vol. 24. — № 2. — P. 136–162.
4. Gallarza M.G., Gil Saura I. Value dimensions, perceived value, satisfaction and loyalty: an investigation of university students' travel behaviour // Tourism Management. — 2006. — Vol. 27. — № 3. — P. 437–452.
5. Creswell J.W., Plano Clark V.L. Designing and Conducting Mixed Methods Research. — 3rd ed. — Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2017. 520 p.
6. UN Tourism. International Recommendations for Tourism Statistics 2008 (IRTS 2008). — Madrid: United Nations, 2008 (2024 yil yangilangan nashr). — 148 p. — URL: <https://www.unwto.org/tourism-statistics/on-basic-tourism-statistics>



7. UN Tourism. World Tourism Barometer. — Vol. 22. — Issue 1. — Madrid, 2024. — 180 p. — URL: <https://www.unwto.org/world-tourism-barometer>
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekistonda turizm. 2020–2023 yillar statistik to'plami. — Toshkent: Statagentlik, 2024. — 220 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. 2023 yil statistik byulleteni. — Toshkent: Statagentlik, 2024. — 200 b.
10. Tursunova G.R. Turistik xizmatlarni ko'rsatishda sifatning iqtisodiy muammolari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2025. — № 1. — B. 45–58.
11. Karimov M., va boshq. Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road // Economies. — 2025. — Vol. 13. — № 9. — P. 250. — DOI: 10.3390/economies13090250.
12. Suyunov R.G'. Service Quality in the Tourism Industry: A Case Study of Uzbekistan // Central Asian Journal of Innovation and Tourism Management and Finance. — 2025. — Vol. 6. — № 2. — P. 112–128.
13. Astanakulov O. Assessing the Contribution of Tourism to Uzbekistan's Economic Growth: Analysis of Influencing Factors // Economics, Finance and Management Review. — 2025. — № 1. — P. 78–95.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
